



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



**VOL.3 № 3**

**2026**

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILAR YUTUQLARINI OSHIRISH UCHUN O'QITUVCHI VA OTA-ONALAR O'RTASIDA HAMKORLIKKA ASOSLANGAN SAMARALI MULOQOT STRATEGIYALARI**

**Shokirova Madinabonu Shomurod qizi**

Buxoro davlat pedagogika instituti, tayanch doktoranti

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning akademik yutuqlarini oshirish maqsadida o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasidagi samarali muloqot strategiyalarini hamkorlik yondashuvi orqali o'rganadi. Maqolaning dolzarbligi shundaki, ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qituvchi va ota-ona hamkorligi o'quvchilarning akademik muvaffaqiyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

**Kalit so'zlar:** Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi, ma'naviy-axloqiy tarbiya, individual yondashuv, samarali muloqot strategiyalari, tarbiyalanganlik darajasi indikatori, hamkorlik mexanizmi, madaniy tafovutlar.

## **ЭФФЕКТИВНЫЕ СТРАТЕГИИ КОММУНИКАЦИИ, ОСНОВАННЫЕ НА СОТРУДНИЧЕСТВЕ МЕЖДУ УЧИТЕЛЕМ И РОДИТЕЛЯМИ, ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ДОСТИЖЕНИЙ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

**Шокирова Мадинабону Шомурод кизи**

Бухарский государственный педагогический институт, базовый докторант

### **Аннотация**

В данной статье рассматриваются эффективные стратегии коммуникации между учителями и родителями на основе сотрудничества с целью повышения академических достижений учащихся начальных классов. Актуальность исследования заключается в том, что именно на начальном этапе образования взаимодействие учителя и родителей играет важную роль в формировании академической успешности учащихся.

**Ключевые слова:** концепция непрерывного духовного воспитания, духовно-нравственное воспитание, индивидуальный подход, эффективные стратегии коммуникации, индикатор уровня воспитанности, механизм сотрудничества, культурные различия.

## **EFFECTIVE COMMUNICATION STRATEGIES BASED ON COLLABORATION BETWEEN TEACHERS AND PARENTS TO IMPROVE STUDENTS' ACHIEVEMENTS IN PRIMARY EDUCATION**

**Shokirova Madinabonu Shomurod qizi**

Bukhara State Pedagogical Institute, Basic Doctoral Student

### **Abstract**

This article examines effective communication strategies between teachers and parents based on a collaborative approach to improve the academic achievements of primary school students. The relevance of the study lies in the fact that, especially at the primary education stage, cooperation between teachers and parents plays a crucial role in shaping students' academic success.

**Keywords:** concept of continuous spiritual education, moral and ethical education,

individual approach, effective communication strategies, indicator of upbringing level, cooperation mechanism, cultural differences.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, xususan, “Ilm-fan va ta’limni rivojlantirish Milliy strategiyasi”, “Maktab ta’limini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” kabi hujjatlarda ota-onalar ishtirokini kuchaytirish, ta’lim sifati va bolalar tarbiyasida ularning mas’uliyatini oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonida ota-onalar bilan tizimli aloqalarni yo‘lga qo‘yish, ularni pedagogik hamkorlik subyekti sifatida jalb etish bo‘yicha bir qator metodik va tashkiliy mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2019- yil 3- maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi: 2019- yil 31-dekabr, 1059-son Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 31-dekabrda 1059-son qaroriga “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” joriy etildi.

Konsepsiyaning maqsadi — yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish, uni amalga ro‘yobga chiqarish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi, bunda biz tadqiqotimizga tegishli vazifalarni ajratib oldik.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

Tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib voyaga yetgunga qadar davom etadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;

Bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish;

Ma’naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo‘lga qo‘yish;

Ma’naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi.

Konsepsiyada belgilangan vazifalarni oila va uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirish.

Yuqorida konsepsiya vazifalaridan ham bilinib turibdiki o‘qituvchi va ota- ona hamkorligini mustahkamlash juda muhim omil.

O‘quvchi shaxsini birinchi o‘ringa qo‘yib, uning har tomonlama rivojlanishida o‘qituvchining yordami zarurligini ota-ona his qilib tushunsagina farzandida yetuk shaxs siymosini gavdalanitira olishi mumkin.

Tarbiya bo‘lmagan joyda ta’limda yaxshi natijalarga erishib bo‘lmaydi. Tarbiya esa bir kishining vazifasi emas. Jamiyat rivojlanishi uchun har bir fuqaro o‘zaro do‘stona munosabatda bo‘lib, loqaydlik va e’tiborsizlik bilan begona bolalarga qaramasa , o‘zining turmush tajribasi va pand-nasihatini ayamasa shaxs rivojlanishida muhim omil sanalgan atrof-muhit ta’siri ham ijobiy turtki bo‘la oladi.

Tarbiya esa oiladan boshlanarkan uni izchil davom ettirilmasa tarbiyali degan maqomga erishib bo‘lmaydi. Tarbiyalanganlik darajasini aniqlovchi indikatorni ishlab chiqish konsepsiya vazifasi ekan quyida bir necha sifatlarni sanab o‘tmoqchiman:

- ✓ To‘g‘riso‘z,
- ✓ Sabrli,
- ✓ Mehnatsevar,
- ✓ Intiluvchan,
- ✓ Intizomli

Yuqoridagi sifatlarga ega bo‘lgan bolani biz hech ikkilanmay tarbiyali bola deya olamiz va

berilgan sifatlar eng sodda va eng zarur bo'lgan sifatlar sanaladi. Bu xususyatni o'zida mujassamlashtirgan o'quvchilar qolgan barcha ijobiy sifatlarga ega bo'la oladi. Buni shakllantirish esa oson bo'lmaydi, jamiyatda har tomonlama hamkorlik zarur ekanligini anglatadi.

Tadqiqotning maqsadi — o'qituvchi va ota-onalar o'rtasida hamkorlikka asoslangan muloqotni shakllantirishning eng samarali strategiyalarini aniqlash orqali o'quvchilarning natijalarini yaxshilashdir.

Ushbu tadqiqot ishi mobaynida o'tkazilgan tajriba sinov jarayonida hamkorlikka to'sqinlik qilayotgan bir necha omillar boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan tilga olindi. Bu sababalar nafaqat hamkorlikka balki ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi alohida aytib o'tildi. Tajriba - sinov Buxoro shahar 22-umum o'rta talim maktabida amalga oshirilganda o'qituvchilar bilan yakka tarzda suhbat olib borildi, bunda quyidagi e'tirozlar sanab o'tildi.

1. Ota-ona majlisda o'z bolasining xatini taniy olishi kerak.
2. Ota-ona uyda bolasiga vaqt ajratib dars tayyorlasin.
3. Qonuniy jihatdan bajariladigan uyga vazifalarda ota-onani mas'ul qilib qo'yish kerak.
4. MTTda rus guruhda tarbiyalangan bolalar maktabga kelganda o'zbek guruhida o'qishi qiyin.
5. Tabaqalashtirilgan 3 xil darslik maktablarda joriy etilsin.
6. "Go'shti sizniki, suyagi bizniki" degan naqlga hozirda umuman amal qilmay qo'yishdi.

Yuqoridagi e'tirozlar har xil bo'lsada bari o'quvchi ta'lim olishida to'sqinlik qiluvchi sabablar ekanligi yaqqol namoyon bo'lyapti.

Yuqorida tilga olingan uch e'tiroz aynan ota- onaning farzandi darsiga nisbatan befarq ekanligini ko'rsatyapti. Bolasi bilan umuman dars tayyorlamaydigan ota-onalar o'z bolasining yozuvini taniy olmaydi, buni o'qituvchi ota-onalar bilan o'tkaziladigan yig'ilishda guvohi bo'lyapti, bundan tashqari uyga beriladigan vazifani o'qituvchi tushuntirib yuborsada bolaning bajara olmasdan, natijada darsga tayyorlanmasdan kelayotganiga sabab bo'lyapti. Vaholanki darslikda berilgan topshiriqlarni bajarishga har bir ota- ona salohiyati yetadi. Natijada yangi mavzu o'tilishi kerak bo'lgan vaqtda o'qituvchi vaqtni uyga vazifani qayta bajartirishga sarflaydi. Bu holdan charchagan Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchining uyga vazifasiga ota- onasini qonuniy jihatdan mas'ul qilib tayinlanishini, darsga doimiy tayyorgarliksiz keladigan o'quvchilarning ota- onasiga nisbatan intizomiy chora ko'rilishini so'raydigan darajaga kelib qoldik.

Quyida esa ko'rsatilgan keyingi o'qituvchi tomonidan berilayotgan taklif maktab darsliklarini tabaqalashtirish, amaldagi darslik topshiriqlari ba'zi o'quvchiga osonlik qilsa, ba'zi biri uchun murakkab tuyuladi, natijada iqtidorli o'quvchi shu Daraja bilan chegaralanib qolishi past o'zlashtiruvchining esa mavzuni hatto tushunilmay qolish holatlariga olib kelayotgani guvohi bo'ldim. Bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lsada bu e'tirozni bir emas butun maktab o'qituvchilari e'tirof etdi. Biz rivojlanayotgan mamlakatda isteqomat qilyapmiz, uni rivoji uchun o'z hissamizni qo'shyapmiz, yangilik yaratishdan qo'rqqmasligimiz darkor.

Farzandining o'zlashtirishi past bo'lgan bolalar uchun chiqariladigan kitoblardan foydalanayotgani ota-onani befarq qoldirmaydi, natijada "uyg'onadi".

Yana keyingi muammoga nazar soladiga bo'lsak, o'tmishda ota- bobolarimiz farzandini ustozga ta'lim -tarbiyasini to'liqligicha ishonib "Eti sizniki, suyagi bizniki" deyishgan. Hozirda esa o'qituvchi o'quvchiga umuman tanbeh bera olmaydigan darajaga yetib keldik. Har xil e'tirozlarni aytib hurmatsizlik bilan muomlada bo'layotgan ota-onalar ko'payib qolishdi. O'qituvchiga bo'lgan hurmat-izzat tobora yo'qolib boryapti. Farzand tarbiyasini o'qituvchiga ishonib topshirish va birgalikda bir yo'ldan borish lozim, hali o'zligini anglab yetmagan o'quvchi mehnat qilishni xohlamaydi, yaxshi bahoga , yaxshi muomalaga ota- onasining orqasidan

erishishni odat qilib oladi, natijada mustaqil hayotga qadam qo'yganda loqayd, dangasa, murosasiz farzandlar ulg'ayadi.

Yana keyingi muammo tarbiyanaluvchining rus guruhda tahsil olishi va maktabga kelganda o'zbek sinflarda ta'limni davom ettirishi. O'quvchi yangi bilim o'rganish jarayonida so'zlarni anglay olmasligida. Bunda ham ta'lim tilini tanlashda o'qituvchi maslahatiga amal qilinmaslik holatlari kuzatilayapti.

Barcha muammolar yechimi to'g'ri hamkorlik shakli va muloqot strategiyalarini shakllantirishni taqozo etadi.

### **Samarali muloqot strategiyalari**

Tahlil jarayonida quyidagi samarali strategiyalar ajratib ko'rsatildi:

1. **Ikki tomonlama muloqot** – faqat ma'lumot berish emas, balki fikr almashish va ota-onalarning takliflarini inobatga olish.
2. **Muntazam uchrashuvlar** – rejalashtirilgan davriy uchrashuvlar orqali o'quvchilarning rivojlanishini muhokama qilish.
3. **Individual yondashuv** – har bir o'quvchining ehtiyojlarini hisobga olgan holda muloqot olib borish.
4. **Ishonch muhitini yaratish** – tanqidiy emas, qo'llab-quvvatlovchi ohangda muloqot qilish.
5. **Raqamli texnologiyalardan foydalanish** – tezkor va qulay aloqa vositalarini joriy etish.

### **Muhokama**

Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik akademik muvaffaqiyatning muhim omillaridan biridir. Ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida bu hamkorlikning ahamiyati yanada ortadi, chunki bu davrda bolalarning o'qishga bo'lgan munosabati va asosiy bilim ko'nikmalari shakllanadi.

Shu bilan birga, ayrim muammolar ham aniqlangan. Masalan:

- Ota-onalarning vaqt yetishmasligi
- Ijtimoiy-iqtisodiy farqlar
- Madaniy tafovutlar
- O'qituvchilarning yuklamasi yuqoriligi

Bu omillar samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shuning uchun maktab rahbariyati va ta'lim siyosati darajasida hamkorlikni qo'llab-quvvatlovchi tizimli mexanizmlarni ishlab chiqish zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hamkorlikka asoslangan muloqot strategiyasi nafaqat akademik natijalarni yaxshilaydi, balki o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### **XULOSA**

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi samarali muloqot o'quvchilarning akademik yutuqlarini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Tizimli adabiyotlar tahlili asosida aniqlanishicha, muntazam, ochiq va ikki tomonlama hamkorlikka asoslangan muloqot o'quvchilarning motivatsiyasi, darslarga faolligi va o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, ota-onalarning ta'lim jarayonidagi faol ishtiroki o'quvchilarning o'qish samaradorligini oshiradi hamda ularning maktabga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantiradi. Ayniqsa, individual yondashuv, ishonchli munosabat va raqamli kommunikatsiya vositalaridan foydalanish samarali hamkorlikni ta'minlashda muhim strategiyalar sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy farqlar, vaqt cheklovlari va madaniy tafovutlar kabi omillar muloqot jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun maktab rahbariyati



hamda ta'lim siyosati darajasida ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikni qo'llab-quvvatlovchi tizimli mexanizmlarni ishlab chiqish zarur.

Umuman olganda, hamkorlikka asoslangan muloqot strategiyasi boshlang'ich maktab o'quvchilarining nafaqat akademik muvaffaqiyatini, balki ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ham ta'minlashga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo'nalishda empirik tadqiqotlarni kengaytirish va amaliyotga joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. 2019- yil 31-dekabr, 1059-son Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 31- dekabrda 1059-son qaroriga "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" konsepsiyasi. Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-son qarori. (2020). "2020–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". Lex.uz.
3. M.Sh. Shokirova "Boshlang'ich sinflarda ota –onalar bilan hamkorlikni yanada takomillashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar va muhim vazifalar" Ta'limda istiqbolli izlanishlar - xalqaro ilmiy-metodik jurnal ISSN: 3060-527X
4. M.Rachman, S.Muslim, D.Suparman, E.Norman. "Effective Communication Strategies between Teachers and Parents through a Collaborative Approach to Improve Student Achievement in Primary Schools" Jurnal Dirosah Islamiyah Volume 6 Nomor 3 (2024) 1270 – 1281 P-ISSN 2656-839x E-ISSN 2716-4683 DOI: 10.17467/jdi.v6i3.5329 M.Rachman, S.Muslim, D.Suparman, E.Norman.
5. Conus, X., & Fahrni, L. (2019). Routine communication between teachers and parents from minority groups: an endless misunderstanding? Educational Review, 71(2), 234–256. <https://doi.org/10.1080/00131911.2017.1387098>
6. Shokirova M.Sh. Mutafakkir olimlarning boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qilish borasidagi qarashlarining ilmiy tahlili // Inter education & global study. 2025. vol.3, №10. B.46–53.